



IPOTEKA SHARTNOMASIGA OID ISHLARDA ISBOTLASH VA DALILLARNI QO‘LLASHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI

Qarshiboyev Jasurbek Komiljon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Mediatsiya va nizolarni muqobil hal
etish usullari mutaxassisligi magistri

e-mail: jasurbekqarshiboyev54@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada ipoteka shartnomasiga oid nizolarni fuqarolik va iqtisodiy sudlarda ko‘rib chiqish jarayonida isbotlash institutining tutgan o‘rni va ahamiyati huquqiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, isbotlash jarayonining huquqiy asoslari, isbotlash majburiyatining taqsimlanishi, dalillarning turlari, ularni sudga taqdim etish va baholash tartibi keng yoritiladi. Ipoteka bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha yozma dalillarning ishonchliligi, notarial tartibdagi hujjatlarning protsessual kuchi, shuningdek, bank va moliyaviy hujjatlarning isbot vositasi sifatidagi maqomi chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ipoteka shartnomasi nizolari, nizolarni ko‘rib chiqish, dalillar, isbotlash, isbotlash vositalari, dalillar majmui, ipoteka shartnomasi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье с теоретико-правовой и практической точек зрения рассматривается значение и роль института доказывания в процессе рассмотрения споров, связанных с договором ипотеки, в гражданских и экономических судах. В частности, подробно анализируются правовые основы доказывания, распределение бремени доказывания, виды доказательств, порядок их представления в суд и оценки. Особое внимание уделено достоверности письменных



доказательств по ипотечным делам, процессуальной силе нотариально удостоверенных документов, а также правовому статусу банковских и финансовых документов как средств доказывания.

Ключевые слова: споры по договору ипотеки, рассмотрение споров, доказательства, доказывание, средства доказывания, совокупность доказательств, договор ипотеки.

ABSTRACT: This article analyzes the legal and practical significance of the institution of proof in the consideration of disputes related to mortgage contracts in civil and economic courts. In particular, the article examines the legal foundations of the evidentiary process, the distribution of the burden of proof, the types of evidence, as well as the procedure for submitting and evaluating them in court. Special attention is paid to the reliability of written evidence in mortgage-related cases, the procedural validity of notarized documents, and the evidentiary value of bank and financial documents.

Keywords: mortgage contract disputes, dispute resolution, evidence, proof, means of proof, body of evidence, mortgage contract.

KIRISH

Ko'chmas mulk bozorida davlat tomonidan keng ko'lamli ipoteka dasturlarining joriy etilishi ipoteka shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolar sonining ortishiga olib kelmoqda. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga ko'chmas mulk va ipoteka bilan bog'liq bo'lgan fuqarolik da'volari soni 17 mingdan oshgan, ularning asosiy qismini aynan ipoteka kreditlari yuzasidan qarz to'lovlari, mulkni garovga qo'yish va ijro harakatlari tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida 2024-yil davomida ipoteka shartnomasi bo'yicha yuzaga kelgan nizolar sudda ko'rib chiqilgan fuqarolik ishlarining 11 foizini tashkil etgan.



Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF — 158-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida fuqarolarning mulkiy huquqlarini ishonchli himoya qilish, sud-huquq sohasida xalqaro standartlarni joriy qilish va ipoteka tizimini xalqaro amaliyot asosida takomillashtirish asosiy ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xususan, mulk huquqining kafolati, ipoteka kreditlash mexanizmini zamonaviy bosqichga olib chiqish va fuqarolarning sud orqali himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirish 2030-yilgacha bo‘lgan taraqqiyot strategiyasining eng ustuvor maqsadlaridan biri sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ipoteka shartnomasi bilan bog‘liq nizolarning sudda ko‘rilishi bilan bog‘liq protsessual jihatlarini yuzasidan Sh.Shoraxmetov, M.Mamasiddiqov, Z.Esanova, D.Xabibullayev, O.Pirmatov, A.Xaqberdiyev, D.Xudoynazarovlar ma’lum ma’noda tadqiqot ishlari olib borganlar. Shunga qaramasdan, ipoteka shartnomasi bilan bog‘liq huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni da’vo tartibida sudda ko‘rish masalasi respublikamiz olimlari tomonidan yuridik adabiyotlarda alohida tadqiqot ishi darajasida o‘rganilgan deb ayta olmaymiz.

Buning uchun ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy va formal yuridik o‘rganish usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Tadqiqotda ipoteka nizolarining sudda ko‘rib chiqilishining zamonaviy modellari, dalillarni taqdim etish va baholashning nazariy asoslari va ularning amaliyotga tatbiq etilishidagi muammolar chuqur o‘rganildi. Xususan, ipoteka shartnomasiga oid nizolarda isbotlash yukining taqsimoti, dalillarni sudga taqdim qilish va baholash, ijro jarayonida yuzaga keladigan protsessual xususiyatlar statistika va real sud qarorlari misolida tahlil qilindi. Xalqaro tajribada ipoteka bilan bog‘liq nizolarni hal etishning muqobil usullari (mediatsiya, arbitraj) orqali tartibga solishning samarali mexanizmlari tahlil qilinib, ularni



O'zbekiston qonunchiligiga moslashtirishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlari ilmiy asosda taklif etildi.

MUHOKAMA

Huquq nazariyasida isbotlash va dalillarni qo'llash masalalari bo'yicha olimlar turlicha yondashuvlarni ilgari surishadi. Rus huquqshunosi A.T. Bonnerning fikricha, isbotlash majburiyatini aniq taqsimlash taraflar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash va sud jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. [1] Shuningdek, professor O.A. Kuznetsov fikriga ko'ra, ipoteka shartnomalari bo'yicha dalillarni taqdim qilishda hujjatlarning asl nusxalarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega, chunki aynan hujjatlarning haqiqiyliги ko'pincha nizolarning asosiy predmeti hisoblanadi. [2]

Ipoteka nizolarida dalillar va isbotlash jarayoni sud protsessining eng muhim va murakkab jihatlaridan biri hisoblanadi. Huquq nazariyasida dalil tushunchasiga turli xil ta'riflar berilgan bo'lib, bu jarayonda ipoteka shartnomalarining huquqiy xususiyatlari dalillarni qo'llashning o'ziga xos jihatlarini shakllantiradi.

Rus huquqshunos olimlardan A.V. Yegorov va A.P. Sergeyevlarning fikricha, fuqarolik sud jarayonida dalil sifatida ishtirok etuvchi faktlar nizoning huquqiy oqibatlarini aniqlash uchun muhimdir. [3] Ayniqsa, ipoteka bilan bog'liq nizolarda shartnomaning mohiyati va uning buzilishi holatlarini isbotlash uchun hujjatlar bilan ishlash ko'nikmasi talab qilinadi. Shuningdek, olimlarning ta'kidlashicha, dalillarni taqdim qilish va ularni baholashda sudlar tomonidan qo'llaniladigan huquqiy standartlar va talablar aniq belgilangan bo'lishi lozim, aks holda taraflarning qonuniy manfaatlari himoyalansizlikka ega bo'ladi.

Professor A.V. Cheremixin ipoteka nizolarini isbotlashdagi asosiy nazariy jihatlarini tahlil qilib, dalillarga baho berishda quyidagi mezonlarni asos qilib oladi:

Dalilning qonuniyligi;

Dalilning ishonchliligi;



Dalilning yetarliligi va o‘zaro bog‘liqligi. [4]

Uning ta’kidlashicha, ayniqsa ipoteka shartnomasi bilan bog‘liq nizolarda shartnomaning amal qilish shartlari, tomonlarning majburiyatlari va ularning buzilganligi aniqlanayotganda yuqoridagi mezonlar asosida baho berilishi kerak.

Ipoteka nizolarida taqdim etiladigan asosiy dalillar hujjatlardan iborat bo‘ladi. Birinchidan, kredit (qarz) shartnomasi va uning ijrosi bo‘yicha ma’lumotlar – masalan, kredit summasi, to‘lov grafigi, qarzdor tomonidan qancha to‘langanligi va qarzdorlik qoldig‘i taqdim etiladi. Ikkinchidan, ipoteka shartnomasi o‘zi uning notarial tasdiqlangan nusxasi va ko‘chmas mulk ipotekasining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi. “Ipoteka to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasiga asosan, ipoteka shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan e’tiboran tuzilgan va kuchga kirgan hisoblanadi. Shu bois sudda ipotekaning haqiqiylikini tasdiqlash uchun ko‘pincha kadastr (ro‘yxat) organi bergan ipoteka registratsiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma dalil tariqasida taqdim etiladi. Agar ipoteka shartnomasi notarial tartibda tasdiqlanishi lozim bo‘lgan hollardan bo‘lsa, notarial tasdiq dalili (notariusning guvohnomasi) ham muhim dalil hisoblanadi. Misol uchun, uy-joy ipotekasi bo‘yicha ko‘p hollarda qonun talabiga binoan bitim notarial tasdiq qilinadi va bu tartibga rioya etilmaganda, bunday bitim bahsli bitim sifatida sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Ipoteka nizolarida isbotlash yukining taqsimlanishi quyidagicha namoyon bo‘ladi: kreditor-bank da’vogarlik qilayotgan bo‘lsa, u qarzdor shartnomani buzganini (masalan, to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirmagani) va ipoteka ta’minoti mavjudligini hamda belgilangan tartibda rasmiylashtirilganini isbotlaydi. Buning uchun bank odatda qarzdorlikning hisob-kitobi, to‘lovlar jadvali, ogohlantirish xatlari nusxalari, ipoteka shartnomasi va uning ro‘yxatdan o‘tganligini tasdiqlovchi dalillarni keltiradi. Agar bank jarima foizlar yoki penya undirishni ham talab qilsa, u buni shartnoma shartlariga muvofiq hisoblab chiqilganini hujjatlar bilan asoslaydi. Javobgar esa, masalan, haqiqatan to‘lov



qilganini yoki bank talab qilayotgan miqdor noto'g'ri ekanini ko'rsatuvchi dalillarni taqdim etishi mumkin (to'lov topshiriqnomalari, kassa kvitansiyalari va b.).[5]Shuningdek, javobgar ipoteka shartnomasini haqiqiy emas deb da'vo qilayotgan bo'lsa, bunga asos bo'ladigan holatlarni isbotlashi kerak – masalan, shartnoma tuzilgan paytda garovga qo'yilgan mulk uning mulki bo'lmaganini yoki bitimni imzolashda bosim o'tkazilganini va hokazolarni dalillashi zarur.

Protsessual jihatdan, ipoteka ishlarida dalillar asosan yozma hujjatlardan iborat bo'lgani uchun, yozma dalillarni taqdim etishning qonuniy tartib-qoidalari muhimdir. Fuqarolik protsessida yozma dalillar asl nusxada yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma tarzida taqdim etiladi. Masalan, ipoteka shartnomasi notarial tasdiqlangan bo'lsa, uning notariusdan olingan nusxasi yoki sudga maxsus so'rov bilan taqdim qilingan notarial hujjat asosiy dalildir. Bank hujjatlari (kredit shartnomasi, hisobvaraqlar bo'yicha ma'lumotlar) bank muhrlangan hujjat ko'rinishida sudga kiritiladi. Agar dalillar uchinchi shaxslarda bo'lsa (masalan, kadastr idorasidagi registratsiya haqida ma'lumot), taraflar sud orqali ularni talab qilib olinishini so'rashlari mumkin. Sudya, agar taraflardan biri muhim dalilni mustaqil ololmasa, uning iltimosiga binoan dalilni talab qilib olishi mumkin (Fuqarolik protsessual kodeksi 85-moddasi).

Ipoteka bilan bog'liq ishlar ko'rishda ba'zan ekspertiza xulosasi va mutaxassis fikriga ham ehtiyoj tug'iladi. Masalan, garovga qo'yilgan uy-joy qiymati yuzasidan bahs bo'lsa, mulk qiymatini aniqlash uchun ekspert baholovchi tayinlanishi mumkin. "Ko'chmas mulkni baholash" sohasida sertifikatga ega mutaxassislar chiqarilgan xulosalar sudda dalil sifatida ko'riladi. Biroq, odatda ipoteka nizolarida mulk qiymati masalasi kam tortishuvli bo'ladi, chunki undiruvga qaratish jarayoni o'zining kim oshdi savdosi orqali real bozor bahosini aniqlashni nazarda tutadi. Shunga qaramay, agar qarzdor garov mulki bozor qiymatidan ancha arzon baholanayotganini da'vo qilsa, sud shu masalada ekspertiza tayinlashi mumkin.



Ipoteka shartnomasi bilan bog‘liq nizoni ko‘rib chiqishda sud tomonidan talab etilgan faktlardan kamida bittasining mavjudligi tasdiqlansa, sud qaror qabul qilishi uchun yetarli bo‘ladi. [6] Lekin da‘vo arizasida bir necha faktlar keltirilgan bo‘lsa, sud tomonidan ushbu faktlarning barchasi to‘liq tekshiriladi hamda baholanadi. Sudning yakuniy qarori faqatgina sud tomonidan tasdiqlangan holatlarga asoslanadi.

Ipoteka shartnomasi bilan bog‘liq nizolarda isbotlash jarayoni murakkab tuzilishga ega bo‘lib, unda quyidagi elementlarni alohida ajratib ko‘rsatish lozim: haqiqatda sodir bo‘lgan faktik holatlar, ya‘ni kredit majburiyatlarining buzilishi, kredit to‘lovlarining amalga oshirilmaganligi yoki ipoteka predmetining noqonuniy ravishda boshqa shaxslarga berilganligi kabi faktlar; ushbu faktlarni tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa dalillar, jumladan, kredit to‘lovlariga oid hujjatlar, guvohlarning yozma yoki og‘zaki ko‘rsatmalari, ekspert va auditorlarning qarzdorlik yoki mulk qiymatiga oid xulosalari. Ushbu dalillarni sud jarayoniga kiritish tartibi ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, da‘vo arizasini topshirishda faktlarni tasdiqlovchi barcha hujjatlar ilova qilinishi va ularning mazmuni arizada batafsil aks ettirilishi zarur; agar sud jarayoni davomida qo‘shimcha dalillarni taqdim qilish zarurati paydo bo‘lsa, ularni faqatgina sudning roziligi bilan, tegishli iltimosnoma orqali sud jarayoniga qo‘shimcha ravishda kiritish mumkin. Bundan tashqari, sud o‘z tashabbusi bilan ham qo‘shimcha dalillar talab qilish huquqiga ega bo‘lib, bu huquq sud jarayoni ishtirokchilarining iltimosnomasi asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Ipoteka nizolarida asosiy dalillar sifatida ipoteka shartnomasi va unga bog‘liq huquqiy hujjatlar, bank yoki kredit tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan qarzdorlik haqida ma‘lumotlar, tomonlarning majburiyatlarni bajarish yoki buzish holatlarini aks ettiruvchi yozma hujjatlar keng qo‘llaniladi. Shu bilan birga, ipoteka bilan bog‘liq nizolarni ko‘rib chiqishda iqtisodiy yoki moliyaviy inqirozlar, kredit foiz stavkalarining umumiy o‘zgarishi kabi hammaga ma‘lum bo‘lgan va isbotlash talab etilmaydigan faktlar ham mavjuddir. Shuningdek, qonuniy kuchga kirgan boshqa sud qarorlari yoki hukmlari ham ipoteka nizosini



ko'rayotgan sud uchun qayta isbotlanishi talab qilinmaydigan dalil hisoblanib, taraflar bu sud qarorlarining qonuniy tartibda tasdiqlangan nusxalarini taqdim etishga majburlar.

Ipoteka nizolarida ko'pincha katta miqdordagi foizlar, penya va jarimalar hisob-kitobi masalasi ko'riladi. Sudga taqdim etiladigan hujjatlar (kredit shartnomasi, ipoteka shartnomasi, to'lovlar grafigi, qarzdorga yuborilgan ogohlantirish xatlari va hokazo) to'liq bo'lishi lozim. [7]Amaliy muammo shundaki, banklar ba'zan barcha hujjatlarni tizimli ravishda taqdim eta olmasligi yoki hisob-kitoblarda xatoliklar bo'lishi hollari uchraydi. Masalan, kredit bo'yicha foizlar noto'g'ri hisoblangan yoki qarzdorga noto'g'ri penya qo'llangan bo'lsa, sud jarayonida buni aniqlash murakkab kechadi. Sudlar bunday holatlarda moliyaviy hisob-kitoblar bo'yicha ekspertiza tayinlashga majbur bo'lishi, bu esa ishni ko'rish muddatlarini cho'zilishiga olib keladi.

Ipoteka obyekti qiymatini aniqlash va hujjatli tekshirishda muammolar bo'lishi mumkin. Masalan, mulkning bozor qiymati va texnik holati yuzasidan malakaviy ekspertiza chaqirish zarurati tug'ilishi hamda sud vakolatli tashkilotlardan hujjatlarni olishdagi noaniqliklar yuzaga keladi. Bundan tashqari, elektron arxiv tizimi va ma'lumot bazalari cheklanganligi sababli biror huquqiy faktni isbotlovchi hujjatlarni tez va onlayn olish imkoniyati cheklangan. Shu bilan birga, O'zbekistonda e-sud tizimi hali to'liq qamrovli emas; my.sud.uz portali orqali barcha fuqarolik da'volarini taqdim etib bo'lmaydi, aksariyat ishlar hali an'anaviy tartibda, qog'oz hujjatlar asosida ko'rilmoqda.

Sud ishi elektron tarzda yuritish va fuqarolarning elektron murojaatlarini qabul qilish ishlari bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Hukumat dasturlariga ko'ra, sud jarayonlarini qog'ozsiz yuritishga o'tish va da'volarni onlayn taqdim etish jadal amalga oshirilayotgani aytilsa-da, amaliyotda bu mexanizmlar hali to'liq ishlamaydi. Natijada ipoteka nizolarini ko'rishda ham elektron xizmatlar cheklangan: onlayn sud majlislarining kamligi, interaktiv ma'lumot almashinuvi va elektron ijro choralarning cheklanishi amaliyotni sustlashtiradi.

XULOSA



Ushbu ilmiy tadqiqot ishi yakunlari shundan dalolat beradiki, fuqarolarning ipoteka shartnomasi bog‘liq huquqlari buzilganda, sud himoyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u nizo kelib chiqqanda, buzilgan huquqni tiklashga, sodir etilgan g‘ayriqonuniy xattixarakatlarni bartaraf etishga, qonun buzilishlarini oldini olishga xizmat qiladi. Shu sababdan, ipoteka shartnomasiga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko‘rish borasidagi sud amaliyotini takomillashtirishga uchun quyidagi xulosa va tavsiyalarni ilgari surishimiz mumkin:

Birinchidan, Muallif tomonidan ipoteka shartnomasi bilan bog‘liq nizolarni fuqarolik va iqtisodiy sudlarda ko‘rish jarayonlarida “due process” (tegishli jarayon), “procedural fairness” (protsessual adolat) va “procedural justice” doktrinalari tahlil qilindi. Sud ipoteka shartnomasi bilan bog‘liq nizoli ishini ko‘rayotganida, aynan “procedural fairness” – ya’ni protsessual adolat tamoyillari va huquqiy doktrinasini qoidalarini amalda qo‘llash maqsadga muvofiq deb topiladi. Tadqiqot natijasida, sudya qaror chiqarishda o‘zining ichki ishonchiga tayanishi, har bir qarorning xolis va adolatli bo‘lishini ta’minlashi, protsessual adolat tamoyillari protsessual qonuniylikdan ustun turishi lozimligi haqida xulosa qilindi.

Ikkinchidan, hozirgi kunda ipoteka shartnomasi bilan bog‘liq nizolarni sudda ko‘rishning ikki xil modeli ajratib ko‘rsatiladi: “Title Theory” (Anglo-sakson tizimida bo‘lgan, unda kreditorga shartli ravishda mulk huquqi o‘tadi) va “Lien Theory” (hozir ko‘p qo‘llaniladigan, unda kreditor mulk ustida faqat ta’minot huquqiga ega, egalik qarzdorda qoladi). Yurtimizda ipoteka shartnomasi bilan bog‘liq nizolarni sudda ko‘rishda “procedural fairness” (protsessual adolat) doktrinasini qo‘llagan holda ipoteka shartnomasi bilan bog‘liq nizolarni “Lien Theory” modeli asosida ko‘rib chiqilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Chunki u, to qaror chiqmaguncha, mulkdan mahrum bo‘lmaydi va hatto qaror chiqqanidan keyin ham to‘lov majburiyatini bajarib, mulkni saqlab qolish huquqiga (equity of redemption) ega bo‘ladi. Shunday qilib, ipoteka shartnomasi bilan bog‘liq nizolarni sudda ko‘rish jarayonlarida protsessual adolat doktrinasini yanada keng tatbiq qilish, sudlarning



qaror chiqarishda ana shu mezonlarga tayanishini normativ jihatdan mustahkamlash muhimligi haqida ilmiy xulosa beradi.

Uchinchidan, sud amaliyotida ipoteka shartnomasi bilan bogʻliq nizolarni sudda koʻrishda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish hamda ushbu nizolarni hal qilish yuzasidan chiqarilayotgan hal qiluv qarorlari va sud amaliyotida bir xil tarzda qonunchilikni qoʻllash maqsadida “Sudlar tomonidan ipoteka shartnomasi va garovga oid qonunchilikning qoʻllanilishi toʻgʻrisida”gi Oliy sud Plenum qarorini ishlab chiqish lozim.

Toʻrtinchidan, ingliz huquqida ipoteka shartnomasi bilan bogʻliq nizolarda “aniq va ishonchli dalil” (clear and convincing evidence), Germaniya huquqida dalillarni tekshirishda “erkin baholash” (freie Beweiswürdigung), Fransiyada ipoteka nizolarida keng qoʻllaniladigan “intime conviction” (ichki ishonch) prinsiplarini ipoteka shartnomasi bilan bogʻliq nizolarni sudda koʻrishda Oʻzbekiston protsessual qonunchiligiga joriy etish lozim.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES):

1. Rybak S. Mortgage and mortgage lending as a tool for financial recovery of the modern Russian economy //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021.
2. Vasilyeva L. P. et al. Accumulative Mortgage System of Housing Provision for Military Personnel in Russia: Problems and Solutions //International Scientific and Practical Conference “Russia 2020-a new reality: economy and society”(ISPCR 2020). – Atlantis Press, 2021.
3. Stavina E., Timoshina A., Chunaev P. Forecasting the volume of mortgage loans with open Internet data in the period of noticeable changes in the Russian mortgage market //Procedia Computer Science. – 2021. – T. 193.
4. Giacoletti M., Heimer R., Yu E. G. Using high-frequency evaluations to estimate disparate treatment: Evidence from mortgage loan officers //Available at SSRN 3795547. – 2025.



5. Foye C., Shepherd E. Housebuilding, land, and structural power: the case of mortgage market support schemes in England //Business and Politics. – 2025.
6. Gomez-Pomar F., Beldowski J. M. Consumer Mortgage Loan Agreements in Foreign Currencies–Does One Solution Fit all?. – 2024.
7. Карпова А. А. Процессуальная акцентуация порядка исчисления периода оспаривания подозрительных сделок, его правоприменительная эволюция и потребность в изменении правового регулирования //Актуальные проблемы российского права. – 2025.